

**FE'L SO'Z TURKUMINI O'QITISHGA DOIR METODIK
TAVSIYALAR**

Asila Xudoyberdiyeva

ToshDO'TAU ona tili va adabiyoti ta'limi yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Xudoyberdiyevaasila240@gmail.com / 886530304

Annotatsiya : Mazkur maqolada fe'l so'z turkumini o'qitishga doir metodik tavsiyalar keltirilgan. Fe'lni o'rgatishda samarali yondashuvlar, mashqlar va o'yinlar yordamida o'quvchilarning tilni to'g'ri ishlatalish ko'nikmalarini shakllantirishga urg'u beriladi. Fe'lni yozma va og'zaki nutqda qo'llashni rivojlantirish ham muhim jihat sifatida ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: fe'l, so'z turkumi, grammatika, zamонlar, o'qitish metodikasi, mashqlar, og'zaki nutq, yozma nutq, til o'rgatish

Abstract: This article provides methodological recommendations for teaching the verb word class. The article emphasizes effective approaches, exercises, and games to help students develop the skills necessary to use verbs correctly. The development of both written and spoken language skills through the use of verbs is also highlighted.

Keywords: verb, word class, grammar, tenses, teaching methodology, exercises, spoken language, written language, language teaching

Аннотация: В данной статье приведены методические рекомендации по обучению глагольному классу слов. Статья подчеркивает эффективные подходы, упражнения и игры, которые помогают учащимся развивать навыки правильного использования глаголов. Также рассматривается важность развития письменной и устной речи через использование глаголов.

Ключевые слова: глагол, класс слов, грамматика, времена, виды, методика преподавания, упражнения, устная речь, письменная речь, обучение языку.

Fe'l so'z turkumi o'qituvchilar va talabalar uchun grammatikaning muhim qismidir. Fe'l - faoliyat va holatlarni ifodalovchi so'z bo'lib, uning o'rgatilishi til o'qitish jarayonida alohida ahamiyatga ega. Fe'lni o'qitishda metodik yondashuvlarning samaradorligi nafaqat til o'qituvchisi, balki o'quvchilarning tilni to'g'ri va samarali ishlatish ko'nikmalarini shakllantirishga ham ta'sir ko'rsatadi.

Fe'lni o'rgatishda, avvalo, uning tushunchasini aniq shaklda tushuntirish muhimdir. Fe'l - bu ish-harakatni yoki holatni ifodalovchi so'z ekanligi, uning turli shakllari (hozirgi zamon, o'tgan zamon, kelajak zamon va hokazo) bilan tanishtirish to'quvchilar uchun zarurdir. Fe'lni qanday ishlatish, uning sintaktik vazifalarini o'rgatish kerak. Shu bilan birga, turli zamonlarda fe'lning qanday o'zgarishini misollar bilan ko'rsatish talabalar uchun tushunarli bo'ladi.

Fe'lni o'rganishni yanada qiziqarli qilish uchun o'quvchilarga turli mashqlar va o'yinlar orqali bilimlarini mustahkamlashni tavsiya etiladi. Masalan, "fe'lni top", "fe'l shakllarini to'ldir", "otlarni fe'lga aylantir" kabi mashqlar o'quvchilarni faol ravishda ishlashga undaydi. Shuningdek, fe'lni qo'llashni o'rganish uchun rolli o'yinlar, topshiriqlar va jamoaviy faoliyatlar samaralidir.

Rolli o'yinlar orqali o'quvchilar fe'lni o'zaro suhbatda ishlatishadi, bu esa ularni tezroq o'rganishga yordam beradi. Masan, o'quvchilarga turli vaziyatlar berib, harakat fe'li yoki holat fe'lini qo'llashga undash. Bir o'quvchi "Men ishga boraman" deb aytadi, boshqasi esa "Men ishga boryapman" deb, boshqasi esa "Men ishga bordim" deb fe'llarni zamonlarini o'zgartiradi. Bu o'quvchilarda zamonlarni farqlay olish ko'nikmasini shakllantiradi.

Fe'lni yozma mashqlar orqali o'rgatish. O'quvchilarga gaplar beriladi. Berilgan gaplarni qavs ichida berilgan fe'llardan foydalanib to'ldirishlari kerak. Misol uchun: "Men __ (yurmoq) ketaman." yoki "U ishxonada __ (ishlamoq)" Ushbu yozma mashqni fe'l shakllarini mustahkamlash va grammatikani aniq tushunishlari jarayonida qo'llash o'rnlidir.

Hikoya yozish orqali o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish. O'quvchilarga qisqacha hikoya yozish sharti beriladi va unda turli fe'llarni ishlatish talab qilinadi. Masalan, "Bir kuni o'rmon ichida bir kishi __ (yurdi),

lekin u _ (yo'lni topdi)." O'quvchilar hikoya yaratishda fe'lni turli shakllarda qo'llashadi.

Fe'l so'z turkumini o'qitishda guruhlarda ishlash o'quvchilarga fe'lni tushunishga va uning turli shakllarini amaliyotda qo'llashga yordam beradi. Bu metodika o'quvchilarga faqat nazariy ma'lumotlarni berib qo'ymasdan, ular o'rganayotgan materialni amaliyotda qo'llashga imkon yaratadi. Guruhlarda ishlash orqali o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash va o'zaro muloqot orqali bilimni mustahkamlash mumkin.

Jumaladan, fe'lni o'qitishda guruhlarda ishlashning quyidagi foydali jihatlarini keltirish mumkin:

1. Faol o'qish va ishtirok: Guruhlar orqali o'quvchilar o'z fikrlarini baham ko'rishadi, savollar berishadi, va fe'llarning turli shakllarini amalda qo'llashadi.
2. Tajriba almashish: O'quvchilar o'zaro fikr almashishadi, bu esa ularning tahlil qilish va o'rganish qobiliyatini oshiradi.
3. Muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish: Guruhlarda ishlash o'quvchilarga o'z fikrlarini ifodalash, boshqalarni tinglash va jamoaviy ishda faol ishtirok etish imkonini beradi.
4. Motivatsiya yaratish: Guruhda ishlash o'quvchilarni yanada faol bo'lishga undaydi, chunki ular bir-birlariga yordam berib, o'qish jarayonidan zavq olishadi.

Ona tili darslarda fe'llarni o'rgatishda guruh bilan ishlash bo'yicha topshiriqlar.

Fe'lni tahlil qilish. Vazifa: Guruhga bir nechta jumlalar beriladi va o'quvchilar ularda ishlatilgan fe'llarni aniqlashlari kerak. Masalan, "Ular mifik tabga bordilar." jumlasida "bordilar" fe'li o'tgan zamon, ko'plik shaklida ishlatilgan.

Fe'lning shakllarini o'rganish. Bu topshirig'imiz orqali o'quvchilarda fe'lni vaqtga, shaxsga, songa qarab shakllantirish ko'nikmasi rivojlanadi. Vazifa: Guruhga biror fe'l (masalan, "yurmoq") berilib, o'quvchilar uni turli zamonlarda ishlatishadi. Masalan:

Hozirgi zamon: "Men yuraman."

O'tgan zamon: "Men yurdim."

Kelajak zamon: "Men yuraman."

Jumlalar yaratish. Mazkur topshiriq fe'lni to'g'ri qo'llash va yaratilgan jumlalar orqali fe'lni og'zaki nutqda to'g'ri ishlatish ko'nikmasini shakllantiradi.

Vazifa: Guruhga bir nechta fe'llar berilib, o'quvchilar shu fe'llardan jumlalar yaratishadi. Har bir o'quvchi turli fe'llar bilan o'z jumlasini yaratadi va guruhga taqdim etadi.

Fe'lni o'rgatishda interaktiv yondashuvni qo'llash. O'quvchilarga fe'lni o'rganishda interaktiv metodlarni qo'llash, masalan, onlayn platformalar, video darslar va mobil ilovalar yordamida fe'lni turli kontekstlarda qo'llash imkoniyatini yaratish muhimdir. Bu, ayniqsa, fe'lning zamonlarini tushunishga yordam beradi. O'quvchilarga turli videolarni tomosha qilishni va ularni tahlil qilishni topshirish, shuningdek, ularning fikrlarini ifodalashga yordam beradigan faoliyatlar tashkil qilishni tavsiya etamiz.

O'yinlar va simulyatsiyalar orqali fe'lni o'rganish. Fe'lni o'rganishda o'yinlar va simulyatsiyalarni joriy qilish samarali bo'ladi. Masalan, "Fe'lni to'g'ri qo'llash" o'yini orqali o'quvchilar turli jumlalarda fe'llarning zamonini to'g'ri ishlatishlari kerak. Boshqa bir o'yin — "Zamonlarni top" o'yini, unda o'quvchilarga turli jumlalar berilib, ularning zamonini aniqlash va to'g'ri shaklga keltirish kerak bo'ladi. Bu kabi o'yinlar o'quvchilarning fe'lni to'g'ri va tezroq ishlatishga yordam beradi.

Kundalik vaziyatlarga oid mashqlar. O'quvchilarga kundalik hayotdan olingan vaziyatlar orqali fe'lni qo'llashni o'rgatish juda foydalidir. Masalan, o'quvchilarga "Ishga borish" yoki "Do'kondan xarid qilish" kabi vaziyatlar berib, ularni turli fe'l shakllari va zamonlarida ishlatishni so'rashingiz mumkin. Bu yondashuv o'quvchilarga fe'lni real hayotda qanday qo'llashni tushunishga yordam beradi.

Yozma va og'zaki nutq o'rtasida integratsiya. Fe'lni o'rgatishda yozma va og'zaki nutqni birlashtirish, o'quvchilarning umumiy til ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. O'quvchilarga turli vaziyatlarda fe'lni qanday

ishlatishni mashq qilishni tavsiya etamiz. Masalan, o'quvchilar hikoya yozish orqali fe'lning shakllarini o'rganishadi, shuningdek, ularni guruhda bahslashishda og'zaki ravishda qo'llashadi.

Differensiyalashgan yondashuv. Har bir o'quvchi o'z imkoniyatlariga qarab o'rganadi, shuning uchun fe'lni o'rgatishda turli darajadagi mashqlarni taklif qilish muhimdir. Masalan, ba'zi o'quvchilar uchun asosiy zamonlarda mashq qilish yetarli bo'lsa, boshqa o'quvchilar uchun yanada murakkab vaziyatlar va fe'l shakllarini qo'llashni taklif etish mumkin. Bu yondashuv o'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga oladi va ularning muvaffaqiyatiga ta'sir ko'rsatadi.

Fe'lni tushunishni kuchaytirish uchun vizual materiallardan foydalanish. O'quvchilarga fe'lni tushunishda yordam berish uchun vizual materiallardan foydalanish muhimdir. Masalan, fe'lning turli shakllarini, zamonlarni ko'rsatuvchi diagrammalar, jadval va rasmi materiallar yordamida fe'lni taqdim etish samarali bo'ladi. Bu o'quvchilarga mavzuni yanada yaxshi anglashga va xotirada mustahkamlashga yordam beradi.

O'zaro baholash va fikr almashish. Fe'lni o'rgatishda o'quvchilarning o'zaro baholash va fikr almashish jarayonini tashkil qilish samarali. Masalan, guruhda bajarilgan mashqlarni bir-biriga tekshirish va bir-birining xatolarini tahlil qilish, o'quvchilarning bilimi va ko'nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi. Bu jarayon o'quvchilarga o'z bilimlarini mustahkamlash imkonini beradi va sinfdoshlariga yordam berish orqali o'zlarini yanada ishonchli his qilishadi.

Fe'lning qiyin shakllarini o'rganish uchun individual qo'llanmalar: Fe'lning murakkab shakllari, masalan, noaniqlik, shartli ravishda fe'lni o'rgatishda alohida e'tibor berish kerak. O'quvchilarga individual qo'llanmalar va qo'shimcha manbalar taqdim etish, ayniqsa, qiyin shakllarni o'rganish uchun foydali bo'ladi. Bu qo'llanmalar o'quvchilarga mustaqil o'rganish imkoniyatini beradi.

Fe'l so'z turkumini o'qitishda metodik yondashuvlar muhim rol o'ynaydi. O'quvchilarni fe'lni to'g'ri va samarali ishlatishga o'rgatish uchun turli metodlar, mashqlar va kontekstual yondashuvlarni qo'llash zarur. Fe'lni o'rgatish jarayonida o'quvchilarga turli fe'l shakllarini, zamonlarini va turlarini tushuntirish, amaliy

mashqlarni bajarish orqali ularning tilni to'g'ri ishlatish ko'nikmalarini shakllantiradi. Shunday qilib, fe'lni o'rgatish jarayoni nafaqat grammatika qoidalarini o'rganish, balki tilni amaliy ravishda qo'llashni ham o'z ichiga olgan murakkab va qiziqarli bir jarayon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ona tili va o'qish savodxonligi. 1-qism [Matn]: 3-sinfi uchun darslik / K.Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 144 b.
2. Ona tili o'qitish metodikasi (Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabalari uchun darslik): K. Qosimova, S.Matchonov, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva, Sh. Sariyev. — T.: «NOSHIR», - 2009. 352 b.
- 3.

https://baxtiyor.uz/oqituvchilar_uchun_barcha_fanlardan_metodlartoplami/#google_vignette.